O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

**"TASDIQLAYMAN"**
O'zDSMI rektori v.v.b.
_______ E.U.Shermanov
202_-yil "31" 08

Ro'yxatga olindi: № *BD-60211000-1.09*
2023 yil "31" avgust

# MADANIYAT VA SAN'AT TARIXI
## O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** *200 000* – San'at va gumanitar fanlar.

**Ta'lim sohasi:** *210 000* – San'at.

**Ta'lim yo'nalishi:** *60211000* – San'atshunoslik(turlar bo'yicha);
*60211100*-Aktyorlik san'ati(turlar bo'yicha);
*60211200*-Rejissyorlik(turlar bo'yicha);
*60210100*-Texnogen san'at(turlar bo'yicha);
*60210200*-Kino-teleperatorlik
*60211900*-Xalq ijodiyoti(turlar bo'yicha);
*60212000*-Madaniyat va san'at menejmenti;
*60320400* – Kutubxona-axborot faoliyati
(kutubxonachilik va bibliografiya)

| Fan/modul kodi MST 20012 | O'quv yili 2023/2024 | Semestr 7 | ECTS-Kreditlar 2 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili o'zbek | | Haftadagi dars soatlari 2 | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Madaniyat va san'at tarixi | | 30 | 30 | 60 |

2.

**I.Fanning mazmuni**

"Madaniyat va san'at tarixi" fanining respublikamiz oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga kiritilishi, eng avvalo, bo'lg'usi mutaxassislarni jahon madaniyati va sivilizatsiyasi yutuqlari bilan tanishtirishni, ularga gumanitar bilimlar berishni chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

"Madaniyat va san'at tarixi" fanini talabalarga o'qitishning ahamiyati katta. chunki jamiyat taraqqiyotida va shaxs kamolotida fan bilimlarining o'rni va roli o'ta muhim ahamiyatga ega. Zero, insoniyat to'qnash kelgan barcha muammolar va to'siqlarning yechimi madaniyatga borib taqalmoqda. Demak, inson hayoti, uning madaniyati bilan bog'liq muammolarni bugun hal qilmasdan turib kelajak taraqqiyotini ta'minlab bo'lmaydi.

"Madaniyat va san'at tarixi" fani talabalarda keng mushohada madaniyatini shakllantirib, ularni ziyolilik ruhida tarbiyalaydi hamda buyuk maqsadlar bilan yashashga da'vat etadi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi**

**1-mavzu. Madaniyat va san'at tarixi" fanining predmeti, vazifalari va jamiyatdagi o'rni**

Ma'naviyat, milliy qadriyatlar to'g'risida. Madaniyat va san'at tarixi bilimlar tizimi sifatida. Madaniyatning sohalar bo'yicha tasnifi: iqtisodiy madaniyat va uning turlari. Siyosiy madaniyat-insonlarning siyosiy manfaatlari, e'tiqodlari, maqsadlarini ifodalovchi huquqiy g'oyalar majmui. Kasb mahorati madaniyati – aniq mehnat turi bilan bog'liq nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar yig'indisi. Pedagogik mahorat madaniyati – ilmiy bilimlar va axloqiy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishdan, ekologik madaniyat – inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlardan iborat.

Madaniyatning ko'rinishlar bo'yicha tasnifi. Hukmron madaniyat. Qishloq madaniyati. Shahar madaniyati. O'rganish bo'lib qolgan madaniyat. Madaniyatning paydo bo'lish darajasiga ko'ra turlari: yuksak madaniyat, xalq madaniyati, ommaviy madaniyat.

**2-mavzu. Madaniyat taraqqiyotida vorislik. Madaniy meros tushunchasi.**

Meros – dunyo xalqlari uchun umumiy insoniy mulk. Merosning tarixan o'zgarib borishi. "Buyuk ipak yo'li" madaniyati- O'rta Osiyo madaniyatining uzviy bir qismi. Bu madaniyat Eron, Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoy madaniyatini keskin ravishda o'zgartirishga sabab bo'lgani.

Me'morchilikka oid o'tmishdagi va bugungi inshootlar, ularning tarixi, farqlari, o'z davri uchun noyob hodisa ekani – madaniy taraqqiyotning muhim belgisi. Madaniy meros – insoniyatning o'tmish bilan chambarchas bog'liqligi natijasi. Ma daniy merosning mexanizmi. Ma'naviy merosning uzviyligi. O'tmishdan kelajakka o'tish jarayonida merosning mazmunan o'zgarishi.Madaniyatning ma'naviy merosni keng targ'ib qilishi. Umuminsoniy madaniy meros, "jahon madaniyati durdonalari" tushunchalari

**3-mavzu. Madaniyatda umuminsoniylik va milliylikning uyg'unligi, uning baynalminal xususiyati.**

Madaniyat va etnos, mamlakatlar va xalqlar.Etnogenez muammolari va jahon xalqlari madaniyatining etnik jihatdan rivojlanishi. Etnik umumiylik va milliy madaniyatlar. Turli tarixiy davrlardagi millat va milliy madaniyatlar. Milliy madaniyat va milliy xususiyatlar. Milliy ong, milliy madaniyatlarni rivojlantirishning tarixiy bosqichlari.

Madaniyatda milliylik va baynalminallik. Turli tarixiy va ijtimoiy -iqtisodiy sharoitlarda milliy madaniyatlarning o'zaro milliy ta'siri to'g'risida qarashlar.

Jahon madaniy aloqalari yagona tarixiy jarayon sifatida.

**4-mavzu. Ibtidoiy davr madaniyati**

Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlar. Antik madaniyat va qadimiy madaniyat, ular o'rtasidagi farqlar. Arxaik davrdagi insonning fikrlash tarzi. Dunyoqarash va tafakkurning shakllanishiga tabiatdagi hodisalar, tabiiy o'zgarishlar ta'sir ko'rsatishi, dunyoqarash, tafakkur bilan tabiat doimo bir - biriga ta'sir o'tkazib borishi. Diniy madaniyatning ilk shakllari va ko'rinishlari: animizm, fetishizm va h.k. Ilk badiiy tafakkur namunalari: shumerlar va ularning mifologiyasi, xalq og'zaki ijodi. Shumerlarda fan. Yozuv madaniyati.

**5-mavzu. Uyg'onish davri madaniyati (IX-XII asrlar)**

Uyg'onish davri, uslub, renessansning asosiy alomatlari, aniq fanlar, falsafiy asarlar, she'riyat, islom dinining asosiy aqidasi, hadis, sahihi Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Moturdiy, Mahmud az-Zamaxshariy, ilm-fan ravnaqi, Bag'dod Ma'mun akademiyasi, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino.

**6-mavzu. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr)**

Amir Temur va temuriylar davri madaniyati. Obodonchilik ishlari.

| | |
|---|---|
| | Hunarmandchilik va uning turlari, taraqqiyoti. Savdo-sotiqning rivojlanishi, karvon yo'llarining ahamiyati. Me'morchilik. Shaharsozlik. Ulug'bek rasadxonasi. Saroy va bog'lar qurilishi. Samarqand registoni. Temuriylar davrida tasviriy san'at va uning turlari rivoji. Naqqoshlik, xattotlik san'ati. Samarqand miniatyura maktabi va uning xususiyatlari. Badiiy hunarmandchilik va uning turli shakllari. Kulolchilik sohasidagi yangiliklar. Samarqand- ilm-fan markazi. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqandda ilm-fan rivoji.<br><br>**7-mavzu. Madaniyat rivojlanishini zamonaviy Konsepsiyasi.**<br>XXI asr madaniyat dinamikasi. Madaniyat universiallashuvi va madaniyat konsepsiyasidagi o'zgarishlar. XX asr madaniyat rivojlanishidagi asosiy maktab va yo'nalishlar, madaniyat diferensiyasi. Madaniyat va san'at tarixidagi madaniyat o'zgarishi va transformatsiyasi va madaniy merosga ta'siri. Madaniyat va san'at tarixidagi modernizatsiyalashuv jarayoni va uning milliy madaniyatga ta'siri. Yangilanayotgan O'zbekistonda madaniy o'zgarishlar. Xarakatlar strategiyasi – taraqqiyot strategiyasi. Yangi Renessans poydevorini yaratishda madaniyatning o'rni.<br><br>**IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**<br>Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:<br>1. Madaniyat va san'at tarixi" fanining predmeti, vazifalari va jamiyatdagi o'rni<br>2. Madaniyat taraqqiyotida vorislik. Madaniy meros tushunchasi.<br>3. Madaniyatda umuminsoniylik va milliylikning uyg'unligi, uning baynalminal xususiyati.<br>4. Ibtidoiy davr madaniyati<br>5. Uyg'onish davri madaniyati (IX-XII asrlar)<br>6. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr)<br>7. Madaniyat rivojlanishini zamonaviy Konsepsiyasi.<br>8. Milliy madaniyat Konsepsiyasi. Madaniyat va san'at tarixining zamonaviy tendensiyalari.<br><br>**VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan asarlar:<br>1. Madaniyat va san'at tarixi" fanining predmeti, vazifalari va jamiyatdagi o'rni<br>2. Madaniyat taraqqiyotida vorislik. Madaniy meros tushunchasi.<br>3. Madaniyatda umuminsoniylik va milliylikning uyg'unligi, uning baynalminal xususiyati.<br>4. Ibtidoiy davr madaniyati<br>5. Uyg'onish davri madaniyati (IX-XII asrlar)<br>6. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr)<br>7. Madaniyat rivojlanishini zamonaviy Konsepsiyasi. |
| | 8. Milliy madaniyat Konsepsiyasi. Madaniyat va san'at tarixining zamonaviy konsepsiyalari.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| **3.** | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>- "Madaniyat va san'at tarixi" kursi mazmunini<br>- talabalarning turli tarixiy davr madaniyatlari<br>- ijtimoiy guruhlarning urf-odatlari, turmush tarzi<br>- ijtimoiy turmush voqeliklarini yagona mazmun asosida anglash<br>- Ko'plab betakror va mustaqil madaniyatlardan tashkil topgan jahon sivilizatsiyasining birligi va xilma-xilligi to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***<br>– talabada madaniyat voqeliklaridan xabardo bo'lishi haqida ***bilimlarga ega bolish;***<br>– talaba jahon madaniyati va uning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekiston madaniyatining rivojlanish tarixi, xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi muammolari va istiqbollari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, milliy madaniyat va o'zga millatlar madaniyati,qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda, madaniyat yodgorliklariga ijobiy munosabatda bo'lish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4.** | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• blits-so'rov;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Musayev N.U., Azimov X.I. Madaniyat va san'at tarixi. O'quv qo'llanma. - T.: TDYUI, 2011. – 266 b.<br>2. Mustafayeva N.A. XX asrda O'zbekistonda madaniyat va tafakkur. T.: "Navro'z" 2014. – 212 b.<br>3. Nishonboyeva Q. Mustaqillik va madaniyat rivoji. – T.: "Sano-standart" . 2017. – 246 b. |

| | |
|---|---|
| | **Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydėvoridir. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son<br>2. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 17 fevral, 35-son.<br>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. / Yangi O'zbekiston gazetasi, 2020 yil, 30 dekabr<br>**Axborot manbalari**<br>1. www. Ziyo.net<br>2. http://www.teatr.ru<br>3. teatr.com<br>4. http://www.mxat.ru |
| 7. | **Fan dasturi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.** |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>A.A.Mavrulov – O'zDSMI, "San'atshunoslik va Madaniyat va san'at tarixi" kafedrasi professori<br>Q.V.Nishonboyeva – O'zDSMI, "San'atshunoslik va Madaniyat va san'at tarixi" kafedrasi dotsenti |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>A.H.Ismoilov – San'atshunoslik instituti direktor o'rinbosari, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent<br>O.Z.Rizayev - O'zDSMI, "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi professori v.b., san'atshunoslik fanlari nomzodi. |